

ODAM SAVDOSI JINOYATLARI

Hozirgi kunda odam savdosi davr muammosiga aylanib borayotgani barchamizga ma'lum. Odam savdosi bugunga kelib global xavfsizlik, jamiyat barqarorligi hamda jahon hamjamiyatiga tahdid solayotgan jinoyat, deb baholanmoqda. U o'zining xavfsizlik darajasi bo'yicha noqonuniy qurol-yarog' sotish hamda narkobiznes kabi transmilliy jinoyatlar bilan bir qatorga qo'yilmoqda.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruuhlar odamlarni nafaqat jinsiy yoki mehnat ekspluatatsiyasi uchun, balki ularning ichki organlarini transplantatsiya qilish, narkotik moddalarni tarqatish, boshqa turdag'i jinoyatlar sodir etish uchun ham yollab, majburlanmoqda. Xalqaro ekspertlarning ma'lumot berishicha, har yili dunyo miqyosida 2 million 700 ming kishi odam savdosi qurbaniga aylanadi. Ushbu jinoyatchilikdan tushayotgan noqonuniy daromad esa 7 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi.

Dunyo miqyosida har yili 600 mingdan 800 ming nafargacha ayollar va bolalar aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketib sotiladi. Ayniqsa, odam savdosidan jabrlanganlarning 80 foizini ayollar yoki yosh bolalar tashkil etayotgani ayanchli holatdir. Odam savdosi inson, uning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan eng katta muammolardan sanaladi. Bu savdo jamiyat taraqqiyoti va davlat rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgan, o'z domiga asosan ayollarni va yoshlarni tortayotgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biriga aylanib bormoqda. Odam savdosi bugungi kunda har qachongiga qaraganda ham chuqurroq avj olib borayotgani, butun dunyoda insonlarni kamsitish, ularning huquqlarini tan olmaslik darajalari ortishi insonlarni sarosimaga solmoqda. Odam savdosi jinoyati qullikning zamonaviy shakli bo'lib, qul savdosining yangi ko'rinishi hisoblanadi.

Odam savdosi jamiyatning moddiy, texnik, intellektual salohiyatini pasaytiradi, uning genofondini buzadi. Undan saqlanmoq, odamlarni ogohlilikka chaqirmaq jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, odam savdosi hudud, chegara, millat tanlamaydigan mudhish jinoyatdir.

Insonlarning odam savdosi qurban bo'lib qolishi asosiy sabablarini tahlil qilganimizda quyidagilar o'z tasdig'ini topmoqda:

- Insonlar o'z huquqlarini, milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni bilmasligi, mustaqil va erkin fikr yurita olmasligi.
- Dunyoda ishsizlar sonining oshib borayotganligi.

- Tez va oson mo'may daromad topish ilinji.

Odam savdosiga qarshi kurashishda birgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tegishli idoralar tomonidan ko'rيلayotgan chora-tadbirlar kamlik qiladi. Shuning uchun barcha fuqarolar birgalikda kurashishi kerak.

Hozirda dunyo manzarasiga nazar soladigan bo'lsak, oddiy, soddadil, halol mehnat qilib farzandlarini boqish maqsadida ishsiz qolgan kimsalarni o'z to'riga ilintirib, oldindan ko'p miqdorda pul va'da qilib, erkin bir insonni qullikka mahkum qilayotgan odamfurushlar jamiyatimiz rivojiga putur yetkazmoqda.

Jinoyat ishlari bo'yicha Oltinsoy tuman

sudining sudya yordamchisi.

N.Soatov